



THE ROLE OF LOCAL SELF-GOVERNMENT AS A SOCIAL INSTITUTION IN IMPROVING THE LIVELIHOOD OF THE POPULATION

Nusratjon Tursunov

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Social institution, management, neighborhood, organization, authority, society, family, citizen, dignity

Abstract: This article describes in detail the importance of the role of local self-government as a social institution in improving the lives of the population and its relevance today.

Received: 22.04.23

Accepted: 24.04.23

Published: 26.04.23

MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARUVNING IJTIMOY INSTITUT SIFATIDA AHOLI TURMUSHINI YAXSHILASHDAGI ROLI

Nusratjon Tursunov

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy institut, boshqaruv, mahalla, tashkilot, hokimiyat, jamiyat, oila, fuqaro, qadiryat

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning ijtimoiy institut sifatida aholi turmushini yaxshilashdagi rolining ahamiyati hamda bugungi kundagi dolzarbligi batafsil yoritilgan.

РОЛЬ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ КАК СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Нусратжон Турсунов

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальный институт, управление, соседство, описывается значение роли местного

Аннотация: В данной статье подробно описывается значение роли местного

организация, власть, общество, семья, самоуправления как социального института в
гражданин, достоинство улучшения жизни населения и его
актуальность на сегодняшний день.

KIRISH

Bugungi bozor iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanayotgan sharoitida aholining moddiy jihatdan ta'minlanishida turli ijtimoiy institutlarning roli har qachongidan ortib bormoqda. Aslida institut deyilganda ma'lum tuzilmalar tushiniladi. Ushbu atamaning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki xil yo'sinda qo'llanilib kelinganligini ko'rish mumkin. Ya'ni tor ma'noda maxsus ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarini, keng ma'noda esa biror ijtimoiy munosabatlar doirasidagi me'yolar to'plamini anglatgan.

ASOSIY QISM

Jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holatda institutlar ma'lum sohalarning faoliyatini yo'naltirib turuvchi ramzlar, e'tiqodlar, qadriyat, me'yorlarning nisbatan barqaror va yaxlit majmui deb qaraladi. Mashhur sotsiolog olim, G.Spenser ijtimoiy institutlar taraqqiyoti va ulardagi o'zgarishlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Ijtimoiy institutlar paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun jamiyat va inson tomonidan unga kuchli ehtiyoj sezilishi kerak". Demak, mazkur birliklar bevosita funksional va strukturali ehtiyojlar ta'sirida shakllanar ekan. Yana mashhur olim J.Mid esa ijtimoiy institutlarning kishilarning jamoaga birlashib yashash odati yoki jamoaviylikka intilishida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, insonlar tomonidan ma'lum bir shart-sharoitga nisbatan munosabat bildirish shakllaridagi o'xshashliklar natijasida ijtimoiy institutlar yuzaga keladi. Ijtimoiy institutlar kishilik jamiyatidagi barcha munosabatlar, aloqalar tizimini tartibga solib turish va ularning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki, ular kishilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishning tarixiy shakllangan ko'rinishi barobarida jamiyatdagi mavjud barcha munosabatlar shakllarida o'z ifodasini topadi. Mahalliy o'zini o'zi boshqaruv ijtimoiy institut sifatida jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim bo'lib, kishilarning jamoalarga birlashib yashash ehtiyojining yaqqol misolidir. Shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'zini o'zi nazorat qiluvchi ijtimoiy institutlarning xususiyatlarini uyg'unlashtiradi va jamoatchilik nazorati vazifasini bajaradi. Bu borada jamoa deyilganda nimani tushunish mumkinligi haqida to'xtalganda, uning a'zolari bo'lgandagina mavjud bo'lishini ta'kidlash o'rinli. Darhaqiqat, insonlarni jamoalarga birlashib yashashlari natijasida ijtimoiy ehtiyojlar mutanosibligi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, milliy va boshqa qadriyatlar, ko'nikma, ijtimoiy faoliyat va xulq-atvor me'yorlarining uzluksizligi ta'minlanadi. Mahalliy o'zini o'zi boshqaruv tizimi mohiyatiga to'xtalinar ekan, uning dunyoning turli mintaqalarida turlicha ko'rinishlarda uchrashini aytish mumkin. Masalan, "mahalliy boshqaruv", "mahalliy o'zini o'zi boshqaruv",

“munisipial boshqaruv” va hokazo. Uning Yevropada shakllanishi Buyuk fransuz inqilobi yillarida jamoaning davlatdan mustaqil faoliyatiga nisbatan qo‘llanilishi bilan bog‘liq deyish mumkin. Keyinchalik boshqa davlatlarda ham, xususan, XIX asr boshlarida Germniyada mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv – fuqarolarning davlat isharidagi faol ishtirokini ta‘minlovchi mexanizm sifatida qo‘llanilgan. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruvga nisbatan zamonaviy ta‘riflar esa, o‘tgan asrning 80-yillarida Yevropa Ittifoqining Strasburgdagi “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv Yevropa xartiyasi” da (15-oktyabr,1985-yil) berilgan. Jumladan, unda mazkur tushuncha orqali mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat vakolatlarining ma‘lum qismini bajarishi va boshqarishi, o‘z mas‘uliyatin va mahalliy aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, mavjud qonun doirasida faoliyat yurita olishi huquqi ekanligi belgilangan. Bundan chiqadiki, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning yuqorida qayd qilingan atamalaridagi umumiylik ushbu institutning vazifalari u yoki bu darajada mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni hal etishga qaratilgan. Biroq, ular o‘rtasida farqli jihatlar bo‘lib, boshqaruvning bu shaklini ichki tashkillanishida, davlat bilan hamkorlik qilish usullari, biriktirilgan vazifalarining xususiyatlarida kuzatish mumkin. Shulardan kelib chiqib, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish – bu hudud darajasidagi muammolarni mustaqil hal qilishni nazarda tutadigan joylardagi tashkilotlar hisoblanib, davlat mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruvni xalqqa tegishli bo‘lgan hokimiyatni mustaqil tarzda amalga oshirilishini tan oladi deb hisoblash mumkin. Biroq bu mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi davlat ichidagi davlat emas, u ma‘lum muxtoriyatga ega bo‘lgani holda davlat va jamiyat boshqaruvining umumiy tizimiga uyg‘unlashtirilganidir. Demak, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv bir tomondan davlatning xohish irodasini amalga oshirishda ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, aholining zaruriyati va ehtiyojlari haqida aniq ma‘lumot asosida faoliyat yurituvchi organdir. Zero, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi xalq hokimiyatining chinakam organi, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratik tashkil etishning zarur unsuri hisoblanadi.

Jahon tajribasida o‘zini o‘zi boshqaruvning uch xil shakli alohida qayd qilinadi. Bular anglosakson (ingliz), continental (fransuz) va qayd qilingan ikki usulning aralashuvidagi aralash model. Ushbu modellar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tegishli davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar bilan munosabatga kirishish tamoyillari asosida bir-biridan farqlanadi. Xususan, continental model ilk bor Fransiyada shakllanganligi uchun fransuzcha model nomi ostida ham ommalashgan bo‘lib, undan, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Niderlandiya kabi davlatlarda amalda foydalanib kelinadi. Ushbu modelda o‘zini o‘zi boshqarish organlari keng qamrovli huquqlar va sezilarli mustaqillikka ega bo‘lishiga qaramasdan, o‘zidan yuqori turuvchi munisipial boshqaruvning tegishli bo‘g‘iniga bo‘sunadi. Fransiyada mahalliy o‘zini o‘zi

boshqarish organi – kommunalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri XX asrning 80-yillaridan ularning aholini ijtimoiy ta'minotidagi rolini sezilarli tarzda kuchayishidir.

Bugungi kunda boshqarishning demokratik nomarkazlashtirilishini ta'minlaydigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish hokimiyatining maxsus institutini o'zida namoyon etadi. Mahalliy aholining nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf qilish, balki, fuqarolarning siyosiy haq-huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Shunday bo'lsa-da, ko'rib o'tilganidek, turli davlatlarda va hattoki, bir davlat rivojlanishining turli bosqichlarida mahalliy o'zini o'zi boshqarishda birlik ko'zga tashlanmaydi. Uning tashkiliy shakllari, mahalliy aholining haq-huquqlarini himoya qilish usullari turli xil ko'rinishga ega. Biroq, boshqaruvning ushbu ko'rinishida mazmunini o'zgartirmaydigan umumiylik bor. Bu borda ayrim tadqiqotchilar, zamonaviy boshqaruv shakli aholini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish siyosatini amalga oshirishda namoyon bo'lishi kerak deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning mohiyati mahalliy darajadagi muammolarni hal qilishda saylov tizimi va qonunchilik hujjatlari doirasida markaziy hokimiyatning aralashuvisiz, bevosita fuqarolar tomonidan amalga oshirilishidir. Boshqaruvning bu shaklida fuqarolarning sub'yektiv huquqi jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulki, kasbi, diniy mansubligi, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga aloqadorligini vaj qilib, turli cheklovlarni qo'yilishi mumkin emas. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish sub'yekti "mahalliy aholi", ya'ni shahar va qishloqlarda yashaydigan hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlariga hamda ma'muriy lavozimlariga saylash va saylanish huquqiga ega bo'lgan kishilardir. Ular yuqori davlat organlaridan mustaqil holda mahalliy darajadagi masalalar va muammolarni hal qiladilar, yuzaga kelgan xato va kamchiliklarni bartaraf etadilar. Hech qanday boshqa organ, jumladan, davlat organlari ham mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning harakatlari uchun mulkiy va boshqa huquqiy javobgarlik mas'uliyatini olmaydi.

XULOSA

Ma'lumki, O'zbekistonda o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. U xalqning qadriyatiga aylanib ulgurgan, turmush tarzi, urf-odatlar, milliy mintaliteti xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi – mahalla bo'lib, boshqaruvning huddi shunday ko'rinishini jahonning biror mamlakatidan topish mushkul. G'arb davlatlaridagi mavjud mahalliy o'zini o'zi boshqaruv tizimi ko'proq xalq deputatlari kengashini eslatib, qishloq joylaridagi kuchik jamoalar shaklida vujudga kelgan. Mustaqillik yillarida fuqarolar yig'inlari qoshida oilalar ahvoli bilan yaqindan tanishish, ularga o'z vaqtida moddiy-ma'naviy ko'mak bera oluvchi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy farovon turmushi, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos

demokratik darsxona shakllandi. Bugungi kunda fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilib, ularning soni yildan yilga ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Agar bundan 10-15 yil ilgari O'zbekistonda 10 mingga yaqin mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirda ularning soni ortganligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кравченко И.А. Социология. – Москва: Логос, 1999. – 333 с.
2. История социологии в Западной Европе и США. – Санкт-Петербург: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 50.
3. Ритцер Дж. Современные социологические теории. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 258 с.
4. Мунье Э. Манифест персонализма. – Москва: Республика, 1999. – 40 с.
5. Игнатов В., Бутов В. Местное самоуправление: Российская практика и зарубежный опыт. – Москва: Март, 2005. – 335 с.
6. Игнатов В., Бутов В. Местное самоуправление: Российская практика и зарубежный опыт. – Москва: Март, 2005. – С. 10-13.
7. Холбеков А. Бошқарув социологияси. – Тошкент: Akademiya, 2007. – Б. 10.
8. Нурматова М. Маҳалла миллий ва умуминсоний кадриятлар уйғунлиги // Жамият ва бошқарув, №1. – Тошкент, 2017. – Б. 94
9. O'zbekiston Respublikasi Oqsoqollar Kengashi va "Mahalla" Jamg'armasi Respublika Boshqarmasining 2006-yil yakunlari bo'yicha hisoboti.